



Journal of Natural Sciences

№3
(2021)

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАХРИР ХАЙЪАТИ</u>	<u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош мухаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош мухаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У – Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Кодиров Т- к.ф.д, профессор3. Абдурахмонов Э – к.ф.д., профессор4. Султонов М-к.ф.д, доц5. Рахмонкулов У-б.ф.д., проф.6. Хакимов К –г.ф.н., доц.7. Азимова Д- б.ф.н.8. Мавлонов Х- б.ф.д., доц9. Юнусова Зебо – к.ф.н., доц.10. Гудалов М- фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)11. Мухаммедов О- г.ф.н., доц12. Хамраева Н- фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)13. Рашидова К- фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц14. Мурадова Д- фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Sciences-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

SUG'ORISH TEXNOLOGIYASI

Ortiqova L.S. q-x.f.f.d. (PhD)- Jizzax davlat pedagogika instituti

Abrorova K.M- biologiya yo'nalishi magistri

Annotatsiya: O'zbekiston hududining qariyb chorak qismi cho'l zonasini tashkil etishini, cho'l zonasida mavjud, foydali, aholi turmush tarzini yaxshilay oladigan tabiatning benazir ne'matlarini . sun'iy plantatsiyalarda ko'paytirib, tabiiy o'simlik ahiralarini boyitishning oson va qulay usullarini aholiga o'rgatish, trening darslarini ko'paytirib, buning orqasidan keladigan foydani aholiga juda katta daromad olib kelishini yetkazib berishimiz juda zarurdir.

Kalit so'zlar : Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida - Закон об охране природы - Nature Protection Act; Biologik xilma-xillik – биоразнообразие- biodiversity ; O'simliklarni tomchilatib sug'orish texnologiyasini - технология капельного орошения - drip irrigation technology.

Аннотация: Около четверти территории Узбекистана - пустынная зона. очень важно, чтобы мы учили население простым и удобным способам обогащения природных растительных ресурсов путем умножения их на искусственных плантациях, увеличения количества учебных занятий и обеспечения того, чтобы получаемые от этого выгоды приносили огромную прибыль населению.

Ключевые слова: Закон об охране природы - Закон об охране природы - Закон об охране природы; Биологическое разнообразие - биоразнообразие- биоразнообразие; Технология капельного орошения - технология капельного орошения.

Annotation: About a quarter of the territory of Uzbekistan is a desert zone. It is very important that we educate the public on simple and convenient ways to enrich natural plant resources by multiplying them on artificial plantations, increasing the number of training sessions and ensuring that the benefits derived from this bring huge benefits to the population.

Key words: Law on Nature Protection - Law on Nature Protection - Law on Nature Protection; Biological diversity - biodiversity - biodiversity; Drip irrigation technology - Drip irrigation technology.

Butun dunyo miqiyosida ekologik muammolarning roli tobora global tus olib borayotganligi inobatga olinib, mamlakatimizda hozirgi kunga qadar bir qancha muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi, ekologik

madaniyat, ekologik ta’lim-tarbiya, ekologik ma’rifat masalalariga alohida e’tibor berilmoqda.

Hozirgi kunga kelib butun dunyoda bo’layotgani kabi bizning mamlakatimizda ham ekologik ahvol havas qilarli emas, Shunga ko’ra ta’lim sohasida ekologik ta’lim muhimligini bilish va uning mavqeyini yanada oshirilishi, mamlakatimiz betakror tabiati, ekotuzilmalari, atrof muhitni tez suratlarda o’zgaruvchanligi va uning tabiiy komponentlarini butunlay yo’qotishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o’ta ma’sulyatli, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo’shishi zarurligi bilan belgilanadi.

Ekologik ta’lim berish jaroyonida ekologik ta’lim oid islohotlarni to’liq ro’yobga chiqarishga to’sqinlik qiluvchi jiddiy muammo va kamchiliklar Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son qaroriga muvofiq “ O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish” konsepsiyasida aniq va ravshan ko’rsatilgan. Xususan bularga :

- ¹ barcha turdagi ta’lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida”gi Qonuni 4-moddasida nazarda tutilgan ekologiya o’quvining majburiyligiga oid talablar yetarli darajada bajarilmayapti;
- amaldagi davlat ta’lim standartlari va o’quv dasturlari mazmunan ekologik bilim, ko’nikma, malaka va kompetensiyalar bilan zarur darajada boyitilmagan;
- ekologik ta’lim yo’nalishida ilg’or milliy va xorijiy tajribani o’rganish, ular asosida ta’lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq parametrlari ishlab chiqilmagan;
- ta’lim tizimining barcha bosqichlarida amalda bo’lgan ta’lim dasturlari bugungi kundagi global ekologik muammolarni bartaraf etish, mavjud ekologik xavf-xatar darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni qayta tiklashga qaratilgan umummilliy tadbirlar mohiyati bilan muvofiqlashtirilmagan;
- ta’lim muassasalarida ekologik targ’ibot tizimi ham qoniqarsiz ahvolda, bu borada ekologik targ’ibotni amalga oshirish mexanizmlarini yo’lga qo’yish va ushbu mexanizmlarni munosib rag’batlantirish tadbirlari yetarli darajada amalga oshirilmayapti;

¹ Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son [qaroriga](#)
1-ILOVA
O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish
KONSEPSIYASI

- ekologik ta’limga oid elektron-metodik vositalarni yaratish va innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqilmagan;

- ekologik ta’lim sohasida o’qituvchilarning faoliyatini metodik jihatdan ta’minlovchi o’quv materiallari, shu jumladan, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasiga oid o’quv qo’llanmalari, o’quvchi va talabalar uchun zarur darsliklar yetarli emas;

Ekologik ta’lim sohasidagi o’zgarishlar sirasiga bugungi kunda juda ommabop hisoblangan dasturlash tizmini ham joriy etilishini muvofiqlashtirish, kengaytirish ishlari to’liq yo’lga qo’yilishi, aynan ekologiyaga oid bo’lgan darslik, adabiyotlar qo’llanmalar bilan cheklanib qolmay balki turli qiziqarli, zavq bag’ishlovchi ko’ngilochar, yoshlar dunyoqarashiga mos keldigan o’zbek millatiga va dunyo talabiga javob bera oladigan elektron o’yinlar, dasturlarni, HD formatdagi videolavha, multfilm va qisqa metrajli kinolarni, huddi shunday HD formatda yaratilgan darslik kitoblarni, taqdimot tarzida yoritiladigan mavzularning mamlakatimizning so’lim go’shalari tasvirlangan suratlarga boyitilishi kabi ishlarni qo’shimcha tarzda kiritsa maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Xususan maktab darsliklarida ekologiyamizning gavharlari bo’lgan, hozirgi kunda foydalilik jihatlari kundun- kun ochilib, insoniyatga faqat foyda olib kelishi isbotlanayotgan cho’l o’simliklari to’g’risida umumiy ma’lumotlar qisqa bayon qilingan. Vaholanki ²O’zbekiston Respublikasi qurg’oqchil iqlim mamlakati hisoblanib, uning umumiy hududi 44,5 mln. gektarni, asosan tog’li (21,2 %) va tekislikdan (78,8 %) iborat bo’lib, katta qismi cho’l va yarim cho’l hududlarini, intensiv sug’oriladigan hududlar esa kichik miqdorni tashkil etadi. Yerdan foydalanish bo’yicha islohotlar asosan qishloq xo’jaligida sug’oriladigan yerlarga ko’proq yo’naltirilib, uning hududi jami hududning 10 % ga yaqinini egallaydi. Sug’orilmaydigan qurg’oqchil hududlardan foydalanish samaradorligini oshirish bo’yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar keng ko’lamda olib borilmayapdi. Geografik va iqlim sharoitlarining tavsiflariga ko’ra, O’zbekiston atrof-muhit tanazzuliga juda ta’sirchan hisoblanadi. O’zbekiston sharoitida o’rmon xo’jaligi va yaylov hududlaridagi katta yer maydonlaridan raqobatli foydalanishi natijasida qurg’oqchil erlarni tanazzulga uchrashi kuchaymoqda, bu holat pirovard natijada qishloq tumanlaridagi mahalliy aholining turmush darajasiga, oziq-ovqat xavfsizligiga va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga, shuningdek global miqyosda biologik xilma-xillikka keskin ta’sir ko’rsatadi.

²“ O’zbekistonning tog’li, yarim cho’l va cho’l landshaftlaridagi sug’orilmaydigan qurg’oqchil yerlarni raqobatli ekspluatatsiya qilinishi natijasida tabiiy resurslardan foydalanish bosimini kamaytirish” loyihasi.

Buning oldini olish maqsadida juda ko'plab yo'lga qo'yilayotgan ilmiy, ommaviy turli loyihalar, davlat siyosiy ishlari, ta'lim sohasida olib borilayotgan ijobiy o'zgarishlar qatoriga yana bir qancha muhim qo'shimchalar kiritib o'tishni joiz deb topdim. Xususan: Maktabgacha ta'lim hamda maktab o'quv jarayonlari oliy ta'lim sohasida olib borilayotgan ekologiyaga oid ishlarni kuchaytirish yoki tubdan isloh qilish deb aytaverish, ta'kidlayverishdan ko'ra samara beradigan ishlar bilan ommani shu ishga jalb qilish, o'quvchi yoshlarni tabiatga yashab turgan joyiga nisbatan e'tibori va mehrini oshirishga yordam beruvchi tadbirlarni o'ylab topish, misol uchun:

O'zbekiston hududining qariyb chorak qismi cho'l zonasini tashkil etishini, cho'l zonasida mavjud, foydali, aholi turmush tarzini yaxshilay oladigan tabiatning benazir ne'matlarini . sun'iy plantatsiyalarda ko'paytirib, tabiiy o'simlik ahiralarini boyitishning oson va qulay usullarini aholiga o'rgatish, trening darslarini ko'paytirib, buning orqasidan keladigan foydani aholiga juda katta daromad olib kelishini yetkazib bera olish;

Suv zahiralarning tobora kamayib borish natijasida, aholining suvsizlikdan qiynalayotgan qatlami hayotini ommaga keng, yashirmasdan namoyon qilish orqali, suvni tejashga bo'lgan madaniyatni shakllantirish, obi - hayotni avaylamaslik, besamar sarflashning og'ir oqibatlari aks etagan lavhalarni ko'rsatish bilan suvni asrashga unday olish;

³ekologik jihatdan eng kam xavf tug'diruvchi materiallardan, mahsulotlardan, ishlab chiqarish obyektlari va boshqa obyektlardan ustuvor darajada foydalanish, qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni kengaytirish, zaharli kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanishni ta'minlash, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishning ekologik xavfsiz tizimini takomillashtirish;

o'simliklarni tomchilatib sug'orish texnologiyasini faqat ayrim hududlarda emas, balki butun mamlakat bo'ylab joriy qilinishini amalga oshirish shular jumlasidandir.

Ushbu jumalarni yanada davom ettirish turli chiroqli jumlar bilan boyitib kengaytirish oson, lekin buning samarasini malda olish bir muncha vaqt va mehnat talab qiluvchi ishlardir. Buning uchun talaba yoshlar ham o'qitilayotgan yuzasidan olib borilayotgan jahon talablariga mos keladigan texnologik ta'limlarni talab darajasida o'rganishlari, o'zlarining intellekt darajalarini oshirib, ekologiyaning turg'unligini saqlab qolishga yordam beradigan innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishlari juda arur. Bu ularga bo'lgan zamonamiz extiyojidir.

³ 2030-YILGACHA BO'LGAN DAVRDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva Sh.A., Axatova D.A., Sobirov B.B., Sitov S.S. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi «Fan» nashriyoti..
2. Ishmuhammedov R.J. “Inovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samadorligini oshirish yo'llari” Toshkent. 2004 y.
3. Ta'lim taraqqiyoti umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, «Sharq nashriyoti, matbaa konserni». 1999 yil 3-son.
4. O'zbekistonning tog'li, yarim cho'l va cho'l landshaftlaridagi sug'orilmaydigan qurg'oqchil yerlarni raqobatli ekspluatatsiya qilinishi natijasida tabiiy resurslardan foydalanish bosimini kamaytirish” loyihasi.
5. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son [qaroriga](#) 1-ilova O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi
6. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. Samarqand 2004 y.
7. 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof Muhitni Muhofaza Qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.